

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ALKAROV ELDOR MAXMUDOVICH

**O‘ZBEKISTONDA XAVFSIZ TURIZM SOHASINI
RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MUAMMOLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Alkarov Eldor Maxmudovich

О‘zbekistonda xavfsiz turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari..... 3

Алкарров Элдор Махмудович

Социально-философские проблемы развития безопасного туризма в Узбекистане..... 21

Alkarov Eldor Makhmudovich

Socio-philosophical problems of developing safe tourism in Uzbekistan..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ALKAROV ELDOR MAXMUDOVICH

**O‘ZBEKISTONDA XAVFSIZ TURIZM SOHASINI
RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MUAMMOLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fal74 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich**
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich**
falsafa fanlari doktori, professor

Qobilov Rustam Rajabboyevich
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 1-noyabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№102-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 19-oktabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 19-oktabrdagi 102-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mamlakatlar iqtisodiy barqarorligi va aholi daromadlarining oshishi turizm rivojlanishi bilan xarakterlanmoqda. Biroq ba’zi mintaqalarda amalga oshirilayotgan qurolli mojarolar sayyohlar xavfsizligiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Sayyohlarni jo’natayotgan va qabul qilayotgan mamlakatlar uchun ularning xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sabab turizm infratuzilmasini takomillashtirish orqali sayyohlar erkin dam olishlari uchun imkoniyatlarni oshirish va xavfsizligini ta’minlash bo’yicha aniq dasturlarni ishlab chiqish o’z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Dunyoda ijtimoiy-madaniy institutlar, iqtisodiy rivojlantiruvchi nodavlat tashkilotlar tomonidan turizmni barqaror rivojlantirish borasida samarali nazariy va amaliy tadqiqotlar o’tkazilmoqda. Jumladan, turizmning keng miqyosli turlarini takomillashtirish orqali jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy tajribalarni yo’lga qo’yish bo’yicha tahlillarni keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga, sayyohlar salomatligi va hayotining oliy qadriyat ekanligini inobatga olib, turistlar xavfsizligini ta’minlash hamda ularning madaniy hordiq chiqarishi uchun innovatsiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

O’zbekistonda xavfsiz turizmni rivojlantirish mamlakat imijini oshirish, infratuzilmalarni yaxshilash, aholining ish bilan bandligini ta’minlash, madaniyatlararo integratsiyasidagi ahamiyati ortib bormoqda. “Biz, dunyo ahli mamlakatimizni yaqindan tanishini, xalqimizning boy tarixi va madaniyatini o’z ko’zi bilan ko’rishini istaymiz. Bu borada turizm imkoniyatlari muhim rol o’ynaydi. Shu bois, yurtimizda turizmni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratmoqdamiz va bu o’zining natijalarini bermoqda”¹. Zero, turizm borasida samaradorlikka erishish uchun turistlarning xavfsizligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Shunday ekan, turizm xavfsizligini ta’minlash va uning rivojlanish mexanizmlarini tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo’shimcha sharoitlar yaratish to’g’risida”, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O’zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O’zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmonlari va 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-son “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti samarali xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 40 б.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish jahon ilm-fan ahli oldida turgan muhim ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. So‘nggi yillarda sayyohlar uchun qulay imkoniyatlarni yaratish va ularning rekreatsion istaklarini inobatga olish asosida o‘tkazilayotgan amaliy tadqiqot tahlillari shular jumlasidandir. So‘nggi yillarda turistlar oqimini ko‘paytirish maqsad qilib qo‘yilgan har bir hududda sohaga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarni bajarilgan hududiy belgilaridan kelib chiqib, uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi guruh. Mazkur guruhga xorijlik olimlarni kiritishimiz mumkin. Jumladan, K.Miller, K.Rottom, J.Boven¹, K.Kollins, D.Lundberg, A.Yegorshin, V.Frayburger, B.Milner, M.Grin, J.C.Maken kabi olimlar turizmni insoniyat uchun ahamiyatli tomonlarini tahlil qilishgan. Ushbu tadqiqotchilar turizm sohalarini rivojlana borishi dunyo aholisi hayoti uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, turizmning insoniyat kelajagidagi ahamiyatini yoritishgan. Shu bilan birga K.Rayan² rekreatsion turizmning ahamiyati, D.Makkenel³ sayohat uchun diqqatga sazovor joylarni tahlil qilgan. Tadqiqotchilar ilmiy ishlanmalarida sayyohlar xavfsizligini ta’minlash uchun ijtimoiy muhit barqarorligini ta’minlash muhimligini ta’kidlashgan.

Ikkinchi guruh. MDH davlatlarida madaniy turizmni rivojlantirishga doir ilmiy tahlillarga alohida e’tibor qaratilgan. Sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish va ularning xavfsizligini ta’minlash borasida muhim nazariyalar ilgari surilgan. Xususan, A.E.Saak⁴ sifatli turizm imkoniyatlarini yaratish uchun soha mutaxassislarini tayyorlash tizimiga alohida e’tibor qaratishni, V.I.Nikiforov sayyohlar uchun qulay transport vositalarini tizimga joriy etish, ularning xavfsizligini ta’minlash bilan birga, ekologik barqarorlikka ham o‘z ijobiy samarasini ko‘rsatishini, A.V.Barlukova⁵ etnoturizmni rivojlantirishda uning hududiy jihatlarining ahamiyatini, O.Y.Golomidinova⁶ turizm fenomenining ijtimoiy-falsafiy tomonini o‘rganishda ilmiy izlanishlar olib borisgan.

¹ Kotler P., Bowen J. Makens J. Marketing For Hospitality & Tourism Pearson International Edition 2014, USA., Chris Ryan. Recreational Tourism: Demand and Impacts/Channel View Publications, 2003. – 358 p.

² Chris Ryan. Recreational Tourism: Demand and Impacts// Channel View Publications, 2003. – 358 p.

³ Dean MacCanell. The Tourist: A New Theory of Leisure Class. – New York: Schocken Books, 1989. – 236 p.

⁴ Саак А.Э., Пшеничных Ю.А. Менежмент в социально-культурном сервисе и туризме. – СПб.: Питер, 2006. – 512 с.

⁵ Барлукова А.В. Территориальные особенности управления развитием этнического туризма (на примере Республики Бурятия): Автореф. дис.... канд. экон. наук. – Сочи, 2012. – С.44.

⁶ Голомидова О.Ю. Туризм как феномен городской культуры. Диссертация на соискание ученой степени кандидата культурологии. Екатеринбург, 2019. – С. 120.

Uchinchi guruh. O‘zbekistonda S.R.Tursunova¹ xavfsiz turizmni ta’minlashni ma’muriy-huquqiy choralarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan. A.N. Norchayev zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalariga doir, F.J.Jurayeva turizm sohalarini takomillashtirishda zamonaviy tajribalardan foydalanishning ahamiyati haqida, Z.I.Usmanova² turizm rivojida sifatli xizmatlarni yo‘lga qo‘yish borasida samarali tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Faylasuv olimlardan X.A.Djurakulov zamonaviy ekoturizm rivojida shaxs ekologik huquqiy ongini yuksaltirishning konstruktiv ahamiyatini ochib bergan. B.X.Mirzaraximov³ O‘zbekistonda turizm madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilgan. B.X.Orziqulov O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ma’naviy jihatlarini ijtimoiy-falsafiy asoslagan. Sh.J. Xashimov⁴ O‘zbekistonda milliy turizm rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy masalalarini takomillashtirish yuzasidan takliflarini bildirgan.

Turizmni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot olib borgan yuqoridagi olimlar sayyohlarning xavfsizligini ta’minlashni alohida o‘rganmagan. Shundan kelib chiqib, mazkur dissertatsiyada asosiy e’tibor xavfsiz turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy omillarini tahlil etishga qaratildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an’analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” (2020-2022) mavzusidagi PZ-2020022811 raqamli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda barqaror xavfsiz turizmni rivojlantirishning falsafiy asoslarini ochib berish va ushbu sohadagi ijtimoiy muammolarni oldini olish bo‘yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xavfsiz turizmni takomillashtirishda muhim hisoblangan ma’naviy-madaniy omillarning mohiyatini ochib berish;

xavfsiz turizmni rivojlantirishda innovatsion usullar va raqamli texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qilish;

turizm infratuzilmasi xavfsizligini oshirishning ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish;

xavfsiz turizm sohalarini rivojlantirishda innovatsion g‘oyalarning ahamiyatini ochib berish;

turistik obyektlar imijini oshirishning xavfsiz turizm rivojidagi muhim omil ekanligini ilmiy asoslash.

¹ Tursunova S.R. Xavfsiz turizmni ta’minlashning ma’muriy-huquqiy choralarini takomillashtirish: Yuridik. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD)... diss. –Toshkent: O‘z.Res.JXU, 2023. -156 b.

² Usmanova D.K. Особенности формирования туристского продукта и перспективные направления его развития: Дис. ... канд. экон. наук. – Самарканд: СамИСИ, 2009. – 157 с.

³ Мирзарахимов Б.Х. Ўзбекистонда туризм маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий - фалсафий омиллари: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Андижон: ФарДУ, 2021. -149 б.

⁴ Хашимов Ш.Ж. Ўзбекистонда миллий туризм ривожланишининг ижтимоий-фалсафий масалалари: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Самарканд: СамДУ, 2022. -139 б.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda xavfsiz turizmni rivojlantirish masalalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini xavfsiz turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-axloqiy omillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, analiz, umumlashtirish, umumiylikdan xususiylikka o‘tish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda xavfsiz turizmni rivojlantirishda mavjud infratuzilma, transport, xizmat ko‘rsatish sohasidagi salbiy muammolarni oldini olish bilan birgalikda jamiyatda ksenofobiyalarni yo‘qotish, bag‘rikenglikni yuksaltirish, fuqarolar axloqiy xatti-harakati (yurish-turishi, fe‘l-atvori, atrof-muhitga munosabati, muomala odobi)ni ijobiy tomonga o‘zgartirishning potensial imkoniyatlari ilmiy asoslangan;

mamlakatimizda xavfsiz turizmni rivojlantirishda xalqimizga xos tolerantlik, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, sublimatsiyaning milliy identlikka mos an’anaviylik va zamonaviylik dialektikasi raqamli madaniyatga integrallashuvi ochib berilgan;

O‘zbekistonda turizm sohasidagi xavflarni kamaytirishga qaratilgan islohotlar vandalizm, milliy-diniy bag‘rikeng aholi, turli shovqinlardan himoyalangan obyekt, muomala madaniyati, yuqori kasb xodimlari faoliyatini koevolutsiyasi samaradorligiga erishish bilan bog‘liqligi bevosita kuzatishlar natijasida asoslangan;

globallashuv sharoitida mamlakat imijini yuksaltirishning xavfsiz turizmni ta‘minlashdagi effektlari fuqarolararo attraksiyani, shaxs emotsional-kognitiv motivlarini takomillashtirishga bog‘liq ekanligi mantiqiy isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sayyohlar xavfsizligini ta‘minlash mahalliy aholining bag‘rikenglik muhiti yuqoriligi bilan bog‘liqligi ochib berilgan;

O‘zbekistonda turizm obyektlariga tashrif buyuruvchi sayyohlar xavfsizligini ta‘minlashda infratuzilmalarning, innovatsion texnologiyalarini yaratish bo‘yicha amaliy tavsiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sayyohlar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha aniq choralarni ishlab chiqish, sohaga doir dasturlar ijrosini amalga oshirish, mutaxassislarni tayyorlaydigan ta‘lim muassasalarida qo‘llanma sifatida, aholining turistlarga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda, turizm sohasida maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan sayyohlarning istaklarini amalga oshirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari uchun yangiliklar

yaratish, sayyohlarning erkin dam olishlariga yo‘naltirilgan festivallar o‘tkazish va boshqa faoliyatlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. O‘zbekistonda xavfsiz turizmni rivojlantirishda mavjud infratuzilma, transport, xizmat ko‘rsatish sohasidagi salbiy muammolarni oldini olish bilan birgalikda jamiyatda ksenofobiyalarni yo‘qotish, bag‘rikenglikni yuksaltirish, fuqarolar axloqiy xatti-harakati (yurish-turishi, fe‘l-atvori, atrof-muhitga munosabati, muomala odobi)ni ijobiy tomonga o‘zgartirishning potensial imkoniyatlari ilmiy asoslanganligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta‘lim, madaniyat va sport qo‘mitasi tomonidan bajarilgan “Sog‘lom inson – sog‘lom millat” mavzusidagi loyiha ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta‘lim, madaniyat va sport qo‘mitasining 2023-yil 22-noyabrdagi 04/9-10-12-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qo‘mita tomonidan yurtimizda xavfsiz turizmni rivojlantirishga doir ishlab chiqiladigan qonun loyihasini tayyorlash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan;

mamlakatimizda xavfsiz turizmni rivojlantirishda xalqimizga xos tolerantlik, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, sublimatsiyaning milliy identlikka mos an‘naviylik va zamonaviylik dialektikasi raqamli madaniyatga integrallashuvi ochib berilganligiga doir taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror turizmning rivojlanishida xavfsizlikni ta‘minlash vazifalarini amalga oshirish” bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining 2023-yil 7-dekabrdagi 02-12-17-1959-son ma‘lumotnomasi). Natijada, xavfsiz turizmni rivojlantirish orqali fuqarolarning ongini qonunlarga mos holda yuksaltirish va turistik obyektlarni borib ko‘rishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda turizm sohasidagi xavflarni kamaytirishga qaratilgan islohotlar vandalizm, milliy-diniy bag‘rikeng aholi, turli shovqinlardan himoyalangan obyekt, muomala madaniyati, yuqori kasb xodimlari faoliyatini koevolutsiyasi samaradorligiga erishish bilan bog‘liqligi bevosita kuzatishlar natijasida asoslanganligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori asosida Samarqand viloyatining 2023-yilda amalga oshirilishi belgilangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturining “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining 2023-yil 27-noyabrdagi 34/1-6425-son ma‘lumotnomasi). Natijada fuqarolarning xavfsiz turizmga bo‘lgan ishonchi oshishiga, respublika bo‘ylab barcha turizm turlari bo‘yicha sayohatlarni tashkil etishga, aholining qonunlarga mos holda turizm obyektlarini tomosha qilishga, yo‘llarda xavfsiz bo‘lgan ziyoratlarni tashkil etishga xizmat qilgan;

globallashuv sharoitida mamlakat imijini yuksaltirishning xavfsiz turizmni ta'minlashdagi effektlari fuqarolararo attraksiyani, shaxs emotsional-kognitiv motivlarini takomillashtirishga bog'liq ekanligi mantiqiy isbotlanganligiga doir taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati radiosining "Ziyokor", "Kun mavzusi" eshittirishlari ssenariyalarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-noyabrdagi 01-07/371-son ma'lumotnomasi). Natijada radiosuhandonlarining xavfsiz turizm sohasidagi bilimlarini oshirishga, radiotinglovchilarning ma'naviy saviyasini falsafiy tushunshalar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola (5 ta mahalliy va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqot obyekti va predmeti, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari; xorijiy, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning "**Xavfsiz turizmning mohiyati va metodologik tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida "turizm" hamda "xavfsizlik" fenomenlarini falsafiy o'rganib, hududlarda xavfsiz turizmni rivojlantirishdagi asosiy omillarni, unga to'sqinlik qiluvchi sabablar ijtimoiy-falsafiy tomondan tadqiq qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "**Turizm**" va "**xavfsizlik**" fenomenlarining falsafiy-ilmiy tahlili" deb nomlangan. Insonlar oilaviy turmush, mehnat faoliyatidan biroz bo'lsada chalg'ish maqsadida sayohatlarga chiqadilar. Chunki inson bolasi, dam olishga, hordiq chiqarishga, ko'ngilxushlik va ma'naviy-estetik zavq olishga ehtiyoji doimo saqlanib qoladi. Sayohat davomida turist – ma'naviy olamini boyitadi, yangi bilimlarga ega bo'ladi. Zavqiy taassurotlar uning qalbidagi g'uborlardan xolos etadi. Turizm so'zi asli fransuz tilida mavjud "tour" so'zidan olingan bo'lib, sayr va sayohat ma'nolarini anglatadi. "Turizm" konsepti bugungi kunda insonning dam olish maqsadida o'z yashash manzilidan tashqarida bo'lgan obyektlarga sayohat qilish ma'nosida qo'llaniladi¹.

¹ Краткий словарь иностранных слов. - М.: «Изд.иностран.и нац. слов», 1958.- С. 404.

Mamlakatimizda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, ushbu sohada me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasi shakllantirilmoqda. Turistlar ko'lamini oshirish maqsadida zamonaviy innovatsion texnologilar va standartlarga javob beradigan mehmonxonalar qurilmoqda. Sanab o'tilganlar bilan birga turistlarning xavfsizligini ta'minlash ham dolzarb muammolardan biri sanaladi. Inson uchun uning hayoti va so'g'ligi eng muhim va birinchi galdagi qadriyat hisoblanadi. Xavfsizligi kafolatlanmagan hududga turistlar tashrif buyurishi amrimahol.

Xavf – aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha. Insonning jismoniy, ma'naviy, ruhiy sog'lomligiga zarar yetkazib, baxtsiz hodisalarni keltirib chiqaruvchi jarayonlarni xavflar deb atash mumkin. Xavflar namoyon bo'lishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: birinchisi, real (aniq, ma'lum, ko'rinib turuvchi) xavflar. Bunda xavfni keltirib chiqaruvchi obyekt aniq bo'ladi. Real xavflarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqligi, unga qarshi kurashish va oldini olish yoki turistlarni himoyalash imkoniyatini beradi. Ammo, ikkinchi, ya'ni yashirin xavflar ham mavjudki, ularning obykti, omillari mavjud emas. Qachonki, zararli oqibatlari namoyon qiladi. Ikkala ko'rinishdagi xavflar uchun ham inson tana a'zolari funksiyalarini izdan chiqarish, organlar sog'lomligiga salbiy ta'sir ko'rsatish, ruhiy stresslarga sabab bo'lish xosdir.

Xavfsizlik – bu ayrim ehtimollarga asoslanib, paydo bo'ladigan xavf-xatarni istisno etilgan faoliyat holatidir. Xavfsizlik – bu maqsad, xavfsiz turizm bo'lsa, shu maqsadga, ya'ni turistlar xavfsizligiga erishish uchun qo'llanadigan vositalar, yo'l-yo'riq, qo'llanmalar va usullardir.

Mamlakatimizda turistlar xavfsizligini ta'minlash uchun, eng avvalo, xavf turlarini va ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish muhimdir.

Salomatlikka tahdid – o'limga yoki nogironlikka va boshqa holatlarga olib keluvchi kasallik, shikastlanishlar. Odamning hayotiga tahdid soluvchi xavflarning quyidagi turlari mavjud:

1. Kelib chiqishiga ko'ra: tabiiy, texnogen, antropogen, ekologik, sotsial va biologik.

2. Ta'sir mexanizmiga ko'ra: mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik, psixofiziologik.

3. Salbiy natijalarni rivojlanishiga ko'ra: impulsiv, kumulyativ.

4. Xavfning joylashishiga ko'ra: litosfera, gidrosfera, atmosfera, kosmos bilan bog'liq xavflar.

5. Yuzaga keluvchi oqibatlarga ko'ra: charchash, kasallik, shikastlanish, avariya, yong'in.

6. Keltirib chiqaruvchi sabablarga ko'ra: sotsial, texnik, ekologik, ekonomik.

7. Strukturasiga ko'ra: oddiy va ishlab chiqarishdagi xavflar.

8. Xavf-xatarni namoyon bo'lishiga ko'ra: maishiy, sport, yo'l-transport, ishlab chiqarish, harbiy va boshqalar.

Turistlar xavfsizligini ta'minlash sharoitlari majmuida maishiy muhit katta ahamiyat kasb etadi. Inson organizmi va yashash muhitidagi nomutanosiblik ruhiy diskomfort sifatida namoyon bo'ladi.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Jamiyatda xavfsiz turizmni rivojlantirishning ijtimoiy falsafiy mexanizmlari”** deb nomlangan.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda turizmni rivojlantirish, sayyohlar sonini oshirish va ularning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Hukumatimizning 2017-yil 23 noyabrdagi 939-sonli qarori¹ga asosan mamlakatimizdagi sayyohlar ko‘p tashrif buyuradigan hududlarida “Xavfsiz turizmni ta‘minlash boshqarmalari” tashkil etildi. Turistlar xavfsizligini ko‘zlab tashkil etilgan “maxsus xizmat” xodimlarining asosiy vazifasi, eng avvalo, turizm obyektlarida jinoyatlar va axloqsizliklarni oldini olishdan iborat. Shu bilan birga, xorijiy tillarda so‘zlasha oladigan boshqarma xodimlari yolg‘iz harakatlanayotgan chet davlat turistlariga ko‘maklashadilar. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar ham, ichki sayyohlar ham ushbu soha xodimlarini kuch ishlata, jarima qo‘llovchi insonlar deb emas, o‘zlarining hayoti, sog‘lig‘i, sha‘ni, moddiy boyliklari himoyachilari sifatida qarashmoqda. Xavfsiz turizmni ta‘minlash xodimlari zamonaviy xizmat ko‘rsatish vositalari bilan ta‘minlangan. Ular mushkul ahvolga tushib qolgan har bir sayyohga sifatli xizmat ko‘rsatishga doim tayyor turadilar.

Shu o‘rinda, har bir fuqaroda, ayniqsa, turizm obyektlariga tutash hududlardagi mahalliy aholi e‘tiqodida milliy-diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) tuyg‘usini yuksaltirish lozim. Chunki turli mamlakatlardan, turli dinga e‘tiqod qiluvchi turistlar ham O‘zbekistonga tashrif buyurishadi. Ular xalqimiz madaniy boyliklari, shu bilan birga ziyorat maskanlarini ham tomosha qilish uchun kelishadi. Turistlarga nisbatan har qanday salbiy verbal yoki noverbal harakatlar turizm rivojiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Xavfsiz turizmni rivojlantirish uchun aholining mehmondo‘stlik madaniyatini yuksaltirish, turistlarga nisbatat huquqbuzarliklar sonini keskin kamaytirish lozim. Bu yo‘lda milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda huquqbuzarliklarni oldini olish bo‘yicha xalqaro tajribalardan foydalanish ham o‘z ijobiy samarasini beradi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda yoshlarning mayda o‘g‘riliklarni sodir qilishi, vandalizm holatlarini keltirib chiqaruvchi amoralistik xatti-harakatlarini oldini olish maqsadida “Halt” loyihasi asosida ishlanmoqda. Mayda bezoriliklar yoki o‘g‘rilik qilishga xohishi bo‘lganlar asosan o‘zlarini tanimaydigan, ayniqsa o‘zga hududdan tashrif buyurgan sayyohlarga nisbatan shunday g‘ayriaxloqiy munosabatda bo‘ladilar. Vandalizm ham jamiyatdagi noxush holatlarga sabab bo‘lib, sayyohlarda mahalliy aholi madaniyatiga nisbatan salbiy kayfiyatni shakllantiradi. Vandalizm ilmiy muomalada madaniy-tarixiy va moddiy boyliklarni vayron qilish timsoli sifatida qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda vandalizm jamoat tartibini buzishning ayrim turlarini, xususan jamoat, xususiy va kommunal mulkka shikast yetkazish, ta‘lim-tarbiya maskanlari, transport vositalaridagi asbob va jihozlarni ishdan chiqarish, devorlarga g‘ayriaxloqiy yozuvlarni yozish, bir so‘z bilan aytganda, buzg‘unchilikka qaratilgan harakatlarni anglatadi². Bunday amoralistik harakatlar xavfsiz turizm rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababdan aytishimiz kerakki, “Halt” loyihasining mohiyatida, huquqbuzarlik sodir etgan o‘smirga o‘z mehnati

¹ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.11.2017-y., 09/17/939/0320-son

² Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Тошкент: “Маънавият”, 2023. – Б. 216.

bilan moddiy yoki ma'naviy zararni qoplash taklif etiladi. U bundan bosh tortgan hollarda mahalliy huquqni himoya qilish organlari ish bilan shug'ullanadilar va tegishli jazoni belgilaydilar. Agar fuqaro o'z harakatining salbiy ta'sirini anglab yetsa, bunday g'ayriaxloqiy holatlar davomiyligi kamayadi.

Bobning uchinchi paragrafi **“Xavfsiz turizmni takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili”** deb nomlangan.

So'nggi yillarda xalqaro va ichki turizmning rivojlana borayorganligi bilan ularning xavfsizligini ta'minlash hamda yetarlicha sharoit yaratib berish dolzarblashib bormoqda. Davlatlar o'rtasida kuzatilayotgan nizolar, qurolli to'qnashuvlar, harbiy harakatlar, siyosiy hokimiyatlarning kuchsizlanishi oqibatida jinoyatlar soni oshishi, terroristik harakatlar turistlar xavfsizligining barqarorligini yo'qqa chiqarmoqda. Bu borada har bir mamlakat hukumati sayohatlarga chiqmoqchi bo'lgan o'z fuqarolari xavfsizligini ta'minlash maqsadida: qaysi hududlarda siyosiy beqarorlik hukm surayotganligi, to'qnashuvlar bo'lish ehtimoli yuqoriligi, shu bilan birga tabiiy ofatlar bo'lish ehtimollari haqida muntazam xabardor qilib borishlari lozim. Shuningdek, turizmga doir ma'lumotlarni muntazam yetkazib turuvchi alohida OAV va elektron platformalar yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalqaro turizmning paydo bo'lishi bilan sayyohlar xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. Mamlakatda kriminal holatlarning yuqoriligi, o'g'rilik, aldov, odam o'ldirish, tunash kabi holatlarning yuqoriligi ushbu mamlakatga turistlar oqimini kamaytiradi. Agarda shunday noxush holatlar turistlar bilan tez-tez uchrab tursa OAV orqali butun dunyoga ovoza bo'lishi, hududning imijiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bugun sayyohlar har bir omilga alohida e'tibor qaratmoqda. Turizm sohasi rivojlangan aksariyat mamlakatlar mo'tadil iqlim sharoitida bo'lgan okean va dengiz sohillari mavjud hududlarga to'g'ri kelmoqda. O'zbekistonda ham xavfsiz turizmni rivojlantirishda suv havzalari, mavjud daryo va ko'llardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga suv sporti turlarini keng yo'lga qo'yish, belgilangan joylarda baliq ovlash kabi amaliyotlarni qo'llash turistlar madaniy hordiq chiqarishiga sabab bo'ladi. Ammo suvlar va tabiiy landshaftlardan foydalanishda e'tiborsizlikka yo'l qo'yilsa, ekologiyaga zarar yetkazilsa bunday hududlar turistik mavqeini yo'qota boradi.

Aksariyat sayyohlar tomonidan katta qiziqish bildiriladigan turizm maskanlari tog'lar, ulardagi ekstremal sport turlari va shifobaxsh mineral suvlar chiqadigan hududlardir. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda qishki sport turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, turizm sohasining rivoji bilan bog'liq bo'lgan tog' sporti muhim ahamiyat kasb etmoqda. Misol uchun mamlakatimizda xavfsiz turizmni rivojlantirish maqsadida “Chimyon EXO 2020”, ya'ni Toshkent shahri Bo'stonliq tumani Chimyon tog'larida tashkil etilgan ekoturizm doirasida “Chimyon ekstrim 2020” qishki sport festivalining o'tkazilishi ham shular jumlasidandir¹. Mazkur zavqli sport festivallarining o'tkazilishi sport va turizm rivojiga qaratilayotgan alohida e'tibor natijasidir.

¹ <https://www.xabar.uz/uz/sport/chimyondagi-ekstremal-sport-festivali>

Mamlakatda xavfsiz turizmni rivojlantirishda yuqorida sanab o‘tilgan omillar bilan bir qatorda quyidagi iqtisodiy sharoitlar ham muhim ahamiyat kasb etadi: “turizmning moddiy texnika bazasi, ya’ni mehmonxonalar fondi, umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran tarmoqlari), sport inshootlari, tomosha va sayr qilish, dam olish, bir qator servis xizmati ko‘rsatish obyektlari ichki va tashqi kommunikatsiya tarmoqlari avtomobil, temiryo‘l, havo yo‘llari, dengiz va daryo transporti, aloqa vositalari, Internet tarmog‘i kiradi”¹.

Demak, mamlakatda xavfsiz turizmni rivojlantirish uchun eng muhim omillarga, eng avvalo, mamlakatlarning qulay joylashuv o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga xalqning yashash sharoiti, farovonligi va iqtisodiy barqarorligi ham dolzarbdir. Qaysiki mamlakat xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirishni xohlar ekan, unda birinchi galda ichki turizm rivojlangan bo‘lishi lozim. Ichki turistik madaniyatning shakllanishi xalqaro sayyohlar ko‘lami kengayishiga yo‘l ochadi. Sababi, bu hududda turistlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq mehnat taqsimoti to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘ladi. Xodimlarning malaka darajasi yuqoriligi, xizmat ko‘rsatish sifatining yuqoriligi va sayyohlar xavfsizligini ta’minlash darajasi oshadi.

Sayyohlar doimo o‘z hayoti va salomatligini o‘ylab, manzilga yetib olishda xavfsiz transport vositalaridan foydalanadilar. Ammo qisqa masofa va markaziy hududlarda jamoat hamda yengil transport vositalaridan foydalanishdan boshqa chora qolmaydi. Mana shunday vaziyatlarda turistlarga xizmat ko‘rsatayotgan haydovchining malakasi, yo‘l harakati madaniyati yetarli darajada bo‘lmaydi. Barcha mahalliy aholining yo‘llarda harakatlanish madaniyati barchaning hayoti xavfsizligida va mamlakat imijida muhimdir.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda barqaror xavfsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirishning falsafiy asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobi uchta qismdan iborat.

Bobning birinchi paragrafi “**Xavfsiz turizmni barqaror rivojlantirishning falsafiy asoslari**” deb nomlangan. Xavfsiz turizmning barqaror rivojlanishi muammosini tadqiq etgan barcha olimlar uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarini alohida ko‘rsatib, turizm sohasini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish jarayonida ular o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish muhim ekanligini ta’kidlab o‘tishadi. Jumladan, amaliy jihatdan barqaror turizm tushunchasini aniqlash va o‘lchash ko‘p mezonli mashaqqatli vazifa bo‘lib, bunday keng qamrovli masalani o‘rganishda, turizmning “o‘sish chegaralari” bahslari va salbiy oqibatlariga javoban vujudga kelgan destinatsiyaning “qabul qilish imkoniyati” konsepsiyasidan foydalanish tavsiya etilgan². Turizmni barqaror rivojlantirish – turistik hududlarning iqtisodiy jihatdan barqaror o‘sib, ijtimoiy va ekologik muvozanatni saqlagan holda, mos ishlab chiqarish modellari va iste’mol madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini joriy qilishdir.

Xavfsiz turizmni barqaror rivojlantirish uchun quyidagi 5 ta omil muhim hisoblanadi:

¹ Маматқулов Х.М. ва бошқалар. Халқаро туризм. – Самарқанд: 2007. –Б. 23.

² Сафарова Н.Н., Туризм ривожланишининг илмий-назарий асослари. /Монография/ - Тошкент: “IFMR” нашриёти, - 2017. -Б.220.

Birinchi guruh “Qo‘llab-quvvatlovchi omillar va resurslar” deb ataladi va quyidagilarni qamrab oladi:

infratuzilma (yo‘llar, transport tizimi, sog‘liqni saqlash tizimi, kommunikatsiya tizimi, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar va davlat tashkilotlari, ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik, huquq tartibot organlari, bank tizimi, ta‘lim tizimi);

qo‘llab-quvvatlovchi resurslar (mahalliy inson resurslarining sifati, orttirilgan bilim va kapital resurslar, ta‘lim va tadqiqot institutlari, moliya institutlari, aholiga xizmat ko‘rsatishning turli sohalari);

mamlakatga kirishning soddaligi (havo transportiga oid qonunchilikdagi o‘zgarishlar, kirish viza va ruxsatnomalari, xalqaro yo‘l va havo transporti aloqalari, turli transport vositalari o‘rtasida raqobatning mavjudligi);

mehmondo‘stlik (aholining tashrif buyuruvchilarga nisbatan iliq munosabati, yordam qo‘lini cho‘zishga moyillik darajasi);

ishbilarmonlik (turistik hududda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning ish-bilarmonlik qobiliyati);

siyosiy iroda (barcha siyosatchilar va boshqaruv organlarida band kishilar turizm sohasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida belgilovchi ekanini faqat tan olishi emas balki mafkurasiga aylangan bo‘lishi).

Turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi XX asrda keng ommalashgan turistik hududlarni rivojlantirish modellaridan biri bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni saqlagan holda rivojlanishni ko‘zda tutadi. Tadqiqotlar jarayonida, turistik hududlarni barqaror rivojlantirish - turistik hududlarning iqtisodiy jihatdan barqaror o‘sib, ijtimoiy va ekologik muvozanatni saqlagan holda, mos ishlab chiqarish modellari va iste‘mol madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini joriy qilish – degan xulosaga keldik.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Turizm infratuzilmasi xavfsizligini oshirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili”** deb nomlangan. Turizm infratuzilmasi turistik faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning muhim tarkibiy qismi sifatida murakkab, ochiq va rivojlanib boruvchi tizimga xos bo‘lgan tuzilmaviy tavsifga ega bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi, xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari, turistik tovarlarga talab va taklif shakllanishini namoyon etuvchi mexanizm elementlarining yaxlitligi va bir butunligidan iboratdir.

Turizm infratuzilmasi tushunchasi - turistlarning turistik zaxiralaridan bemalol foydalanishini ta‘minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan yo‘llar, turizmning turli xizmat ko‘rsatish korxonalarini va ularni kerakli darajada ishlatish va ta‘minlash tushuniladi¹.

Turizm xizmatlar diversifikatsiyasi shundan iboratki, turistik infratuzilma korxonalarini raqobatchilarga qaraganda xilma-xil xizmatlarni taqdim etadi va ularning iste‘mol xususiyatini oshiradi. Infratuzilmaning samarali rivojlanishi bevosita o‘zi bilan birga sayyohlar oqimining oshishiga olib keladi, aniq turistik destinatsiyada (turistik hudud) keluvchi turistlar sonining o‘sishi esa tadbirkorlik

¹Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., ИбодуллаевН.Э., АмриддиноваС. Туризм асослари: Ўқув қўлланма - Самарқанд: СамИСИ, 2010. -Б. 179.

faoliyati va infratuzilmaga kapitalni kirituvchi investorlar uchun muhim jozibadorlikni oshiradi.

Turizm infratuzilmasi korxonalarini boshqarishning muhim komponenti bo'lib, axborot ta'minoti hisoblanadi: turizm sohasi uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'lib, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Keyingi yillarda axborot infratuzilmasi turizm muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning hal qiluvchi omili bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda hech bir turistik firma, mehmonxona yoki boshqa turistik korxonalar joylarni band qilish, zahira qilish va Internet texnologiyalarning zamonaviy tizimisiz muvaffaqiyatli ishlay olmaydi.

Turizm infratuzilmasi o'z ichiga uch darajali tizimni qamrab oladi. Turizm infratuzilmasining birinchi darajasiga ishlab chiqarish infratuzilmasi tegishli bo'lib, unga binolar, inshootlar, transport tarmog'i, bevosita turistik mahsulotni ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan, lekin turistik xizmatlarni taklif qilish uchun zarur bo'lgan tizimni o'z ichiga qamrab oladi. Ikkinchi darajaga turistlarning sayohat qilish (ziyosat qilish) joyida sayyohlarning turli ehtiyojlarini qondirishni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar kiradi. Uchinchi darajaga mehmonxona infratuzilmasi, turoperatorlar va turagentlar, ixtisoslashgan transport infratuzilmasi, ta'lim tizimi, axborot infratuzilmasi, ilmiy-metodik ta'minot, turistik talabga mos tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar, ixtisoslashgan turistik savdo infratuzilmasi kabilar kiradi.

Ichki turizm uchun eng katta qiziqish avtomobil transportidir. Shuningdek, yo'llarning sifatini oshirish, yo'l infratuzilmasi va motellarni yaratishga e'tibor qaratish zarur. Umuman olganda, boshqa har qanday faoliyat sohasi singari, turizm sohasidagi turagent va turoperatorlar faoliyati ham yuqori malaka va professionallikni, texnologiyalar, marketing va bozorni chuqur bilishni talab qiladi.

Bobning uchinchi paragrafi **“Mamlakat imijining xavfsiz turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati”** deb nomlangan. Imij - bu brend, muassasa yoki odamlar haqidagi tasavvurlar. Sanoat inqilobi, globallashuv, ommaviy madaniyat, texnologiyaning jadal rivojlanishi kabi omillardir. Deyarli har bir sohada katta raqobat mavjud bo'lgan bugungi kunda o'xshashliklarni farqlash orqali ish beruvchi, mijoz, iste'molchi, sayyoh e'tibor berish zarurati paydo bo'ldi. Raqobatchilardan ajralib turishning yo'li ularning siz haqingizda fikrlarini boshqarishdir. O'ziga xoslikka ega bo'lgan va iste'molchini ishontirgan kishi g'alaba qozonadi.

